

BIZNES KAYFIYATI SHARHI (2026-YIL I CHORAK)

Qisqa tavsif

Iyun 2026

2026-YIL I CHORAGI BIZNES KAYFIYATI TAVSIFI

2026-yilning I choragida O'zbekiston bo'yicha biznes kayfiyati ijobiy dinamika bilan davom etdi. Hududlarda o'tkazilgan so'rov natijalariga ko'ra so'rovda jami 2 487 ta tadbirkor ishtirok etib, tadbirkorlarning iqtisodiy faollik, biznes muhiti va bandlik bo'yicha baholari ijobiy va barqaror shakllanayotganini ko'rsatdi. So'rovda ishtirok etgan tadbirkorlarning 64 foizi joriy biznes shart-sharoitlarini o'tgan yilning mos davriga nisbatan yaxshilangan deb baholadi (2025-yil I chorakda 56 foiz). Bu ko'rsatkichning so'nggi ikki yil davomida o'rtacha 50 foizdan yuqori darajada shakllanayotgani tadbirkorlar ishonchi barqaror saqlanayotganini anglatadi.



Biznes muhitining yaxshilanish darajasi

70%

65%

63%

60%

Tadbirkorlar biznes muhitidagi eng muhim ijobiy o'zgarishlar sifatida bank xizmatlari sifati va raqobat muhiti yaxshilangani, litsenziya olish jarayonlari soddalashgani hamda ma'muriy aralashuvlar biroz kamayganini qayd etishdi. Shu bilan birga, monopollashuv darajasi, soliq ma'murchiligi, energetika ta'minoti va bojxona tariflari bo'yicha holat o'tgan yil darajasida saqlanib qoldi.

Iqtisodiy faollik ko'rsatkichlarining ijobiy shakllanishi I chorakning asosiy xususiyatlaridan biri bo'ldi. Yuk tashish hajmlari, qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab hamda ishlab chiqarish va buyurtma hajmlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 8–10 foizga ko'paydi. Ayniqsa, buyurtmalar ko'payganini bildirganlar ulushi 11 foiz bandga oshib, 57 foizni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich Toshkent viloyati, Navoiy, Andijon, Namangan va Xorazm viloyatlarida yaqqol namoyon bo'lib, bunga asosan ishlab chiqarish, turizm, ta'lim, umumiy ovqatlanish va qishloq xo'jaligi tarmoqlari asosiy hissa qo'shdi.

Ishlab chiqarish quvvatlaridan yuqori foydalanish darajasi Farg'ona va Buxoro viloyatlarida sezilarli oshgan bo'lsa, Xorazm, Andijon, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida pasaydi. Energiya ta'minotidagi uzilishlar, soliq tizimidagi murakkabliklar, ichki talabning yetarli emasligi, yonilg'i narxlarining qimmatlashishi va aylanma mablag'larning kamligi to'liq quvvatda faoliyat yuritmaslikning asosiy sabablari sifatida qayd etildi.

Mehnat bozorida faollik barqaror darajada shakllanib, aksariyat korxonalarining qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talabi ko'paygani ta'kidlandi. I chorakda ishchi kuchiga talabi oshganini bildirgan tadbirkorlik subyektlari ulushi o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 5,6 foiz bandga oshib, 50,4 foizga yetdi. Kelgusi choraklarda Andijon, Namangan, Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida qo'shimcha ishchi kuchiga talabning yuqori darajada ortishi kutilmoqda. Ishlab chiqarish, qurilish, turizm va qishloq xo'jaligi sohalarida bu ko'rsatkich boshqa yo'nalishlarga nisbatan yuqoriroq shakllanishi mumkin.

Moliyaviy ko'rsatkichlar bo'yicha so'nggi uch oy davomida qarz majburiyatlari oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi biroz kamayib, 38 foizni tashkil etdi. Shunday bo'lsa-da, qo'shimcha kreditlarga bo'lgan talab borasidagi kutilmalarda o'suvchi tendensiyalar saqlanib qolmoqda – respondentlarning 49 foizi kelgusida qarz majburiyatlari oshishini kutmoqda. Kredit resurslariga eng yuqori ehtiyoj qurilish, ishlab chiqarish, maishiy xizmat, qishloq xo'jaligi va umumiy ovqatlanish yo'nalishlarida qayd etildi.

Umuman olganda, tadbirkorlarning 71 foizi kelgusi davrda makroiqtisodiy sharoitlar yaxshilanishiga ishonch bildirgan. Bu ko'rsatkich tadbirkorlik subyektlarida iqtisodiy rivojlanish istiqbollari ishonchning yuqori darajada saqlanayotganidan darak beradi.


HUDUDLAR KESIMIDA XULOSALAR

TOSHKENT SHAHRI VA TOSHKENT VILOYATI


Toshkent shahri va Toshkent viloyatida respondentlarning 60 foizi biznes shart-sharoitlarini yaxshilangan deb baholadi. Bu ko'rsatkich 2025-yilning mos choragiga nisbatan 14 foiz bandga oshdi. Xususan, umumiy ovqatlanish, ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligi, kommunal xizmatlar va ta'lim sohalarida biznes muhiti yaxshilanganini ta'kidlaganlar ulushi sezilarli ko'paydi. Bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti, litsenziya-guvohnoma, ma'muriy aralashuvlar hamda elektr energiyasi ta'minotida ijobiy o'zgarishlar qayd etildi. Buyurtmalar va ishlab chiqarish hajmining oshganini qayd etganlar ulushi o'tgan yilning mos

ravishda 11 va 17 foiz bandga yuqori shakllandi. Tadbirkorlarning 53 foizi energiya iste'moli oshganini ma'lum qildi. Mehnat bozori ham faollashib, qo'shimcha ishchi kuchiga talab ko'payganini bildirganlar ulushi 16 foiz bandga oshdi. Kelgusi uch yilda tadbirkorlarning 70 foizi iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi,
respondentlar ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar,
respondentlar ulushi, foizda




BUXORO, NAVOIY VA SAMARQAND VILOYATLARI

Mazkur hududlarda tadbirkorlik muhitidagi ijobiy tendensiyalar barqaror davom etib, tadbirkorlik subyektlarining 63 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi. Ijobiy o'zgarishlar turizm, ta'lim, ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohalarida sezilarli bo'ldi. Bank xizmatlari sifati va kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti, litsenziya olish jarayonlari hamda ma'muriy aralashuvlardagi ijobiy o'zgarishlar asosiy omillar sifatida qayd etildi. Buyurtmalar, ishlab chiqarish hamda qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshganini qayd etgan subyektlar ulushi 50 foiz va undan yuqorini tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 4–5 foiz bandga oshdi. Yuqori quvvatda ishlayotgan korxonalar ulushi 46 foizni tashkil etdi. Kelgusi uch yilda iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan tadbirkorlar ulushi 11 foiz bandga oshib, 73 foizni tashkil qildi.


Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi

respondentlar ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar

respondentlar ulushi, foizda




ANDIJON, NAMANGAN VA FARG'ONA (FARG'ONA VODIYSI)

Farg'ona vodiysida so'rovda ishtirok etgan biznes subyektlarining 65 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi (2025-yil I chorakda 57 foiz). Xususan, moliya, qishloq xo'jaligi, qurilish va ta'lim sohalarida biznes muhiti sezilarli yaxshilandi. Bank xizmatlari sifati, kredit resurslarini olish kengaygani, litsenziya va guvohnoma olish jarayonlari hamda raqobat muhitining yaxshilanishi, ma'muriy aralashuvlarning kamaygani qayd etildi. Korxonalarining 56 foizi buyurtmalar hajmi ko'payganini bildirdi, tadbirkorlarning 57 foizi esa energiya iste'moli oshganini ma'lum qildi. Mehnat bozorida qo'shimcha ishchi kuchiga talab kommunal xizmat, ishlab chiqarish, umumiy ovqatlanish, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlarida ko'paydi. Kelgusi uch yilda tadbirkorlarning 73 foizi iqtisodiyot va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.


Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi

respondentlar ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar


respondentlar ulushi, foizda




QASHQADARYO VA SURXONDARYO VILOYATLARI

Mazkur hududlarda biznes shart-sharoitlari yaxshilanganini ta'kidlagan tadbirkorlik subyektlarining ulushi 70 foizga teng bo'ldi – bu o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga ko'p. Tibbiyot, ishlab chiqarish, hunarmandchilik, ta'lim, tashish va maishiy xizmat sohalarida biznes muhiti yaxshilangani sezilarli bo'ldi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhitining yaxshilanishi va ma'muriy aralashuvlar kamaygani asosiy omillar bo'ldi. Respondentlarning 56 foizi buyurtmalar hajmining oshganini qayd etgan bo'lsa, kelgusida chorakda ko'payishini ta'kidlaganlar ulushi 61 foizni tashkil etdi. Ushbu hududda biznes subyektlarining 73 foizi (2025-yil I chorakda 66 foiz) kelgusi uch yilda iqtisodiyot va biznes muhitida ijobiy o'zgarishlar bo'lishiga ishonch bildirdi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, o'zgarishi, respondent ulushi, foizda




Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda




JIZZAX VA SIRDARYO VILOYATLARI

Bu hududlarda tadbirkorlik subyektlarining 63 foizi biznes sharoitlari yaxshilanganini ta'kidladi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga yuqori bo'ldi. Ishlab chiqarish, turizm, moliya va ta'lim sohalarida biznes muhitining yaxshilanganini qayd etganlar ulushi sezilarli oshdi. Bank xizmatlari, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti va yo'l-transport infratuzilmasi yaxshilangani eng muhim ijobiy omillar bo'ldi. Buyurtmalar hajmi oshganini ta'kidlagan subyektlar ulushi 5 foiz bandga oshib, 55 foizni tashkil etdi. Ishchi kuchiga ehtiyoj ishlab chiqarish, tibbiyot, ta'lim va hunarmandchilik sohalarida yuqori bo'ldi. Kelgusida respondentlarning 60 foizi buyurtmalar hajmi o'sishini, 56 foizi qo'shimcha ishchi kuchiga talab oshishini kutmoqda. Tadbirkorlarning 66 foizi kelgusi uch yilda iqtisodiyot va biznes muhitining yaxshilanishiga ishonch bildirgan.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, o'zgarishi, respondent ulushi, foizda




Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI VA XORAZM VILOYATI

Mazkur hududlarda so'rovda qatnashgan tadbirkorlarning 60 foizi biznes yuritish shart-sharoitlari yaxshilanganini qayd etdi. Xususan, ta'lim, umumiy ovqatlanish, aloqa va axborot, qishloq xo'jaligi hamda turizm sohalarida biznes muhitining yaxshilanishi sezilarli bo'ldi. Bank xizmatlari sifati, kredit olish imkoniyatlari, raqobat muhiti hamda litsenziya olish jarayonlari asosiy ijobiy omillar sifatida qayd etildi. Buyurtmalar hajmi oshganini bildirgan tadbirkorlar ulushi 56 foizga yetdi. Qo'shimcha ishchi kuchiga bo'lgan talab bo'yicha ijobiy baholar o'tgan yilning mos choragiga nisbatan 9 foiz bandga oshdi. Energiya iste'moli ko'payganini bildirganlar ulushi esa 15 foiz bandga pasayib, 45 foizni tashkil etdi. So'rovda qatnashgan biznes vakillarining 67 foizi kelgusi uch yilda mamlakat iqtisodiyoti va biznes muhiti yaxshilanishiga ishonch bildirdi.

Sohalar kesimida biznes kayfiyati o'zgarishi, respondentlar ulushi, foizda



Kelgusi chorak bo'yicha kutilmalar, respondentlar ulushi, foizda



To'liq sharh bilan quyidagi [havola](#) orqali tanishishingiz mumkin: